

Fayzullaeva Gulchexra Sharipboyevna,
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent,
Samarqand davlat pedagogika instituti boshlang'ich
va maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası mudiri

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINI P5BL YONDASHUVI ASOSIDA AMALIYOTDA QO'LLASHNING KOGNITIV-FUNKSIONAL MODEL

UO'K: 371.134

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_5_7](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_5_7)

FAYZULLAYEVA G.SH. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINI P5BL YONDASHUVI ASOSIDA AMALIYOTDA QO'LLASHNING KOGNITIV-FUNKSIONAL MODEL

Mazkur maqolada o'qituvchining kasbiy ehtiyojlari, qiyinchiliklari, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish jarayonini samarali tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, unda umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi kasb standartini P5BL yondashuvi asosida amaliyotda qo'llashning kognitiv-funksional modeli ishlab chiqilgan va ilmiy-metodik jihatdan asoslangan. Model motivatsiya va maqsadni belgilash, ijodkorlik va innovatsion fikrlash, konseptual, protsessual-mazmuniy, kognitiv hamda refleksiv-kommunikativ komponentlar uyg'unligiga tayanadi. Tadqiqot o'qituvchi kasb standartini amaliy faoliyatga tatbiq etish, pedagogning XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini natijadorlikka yo'naltirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Tayanch so'z va tushunchalar: kasb standarti, kognitiv-funksional model, kasbiy rivojlanish, o'z-o'zini rivojlantirish, refleksiya, innovatsion fikrlash.

ФАЙЗУЛЛАЕВА Г.Ш. КОГНИТИВНО-ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ПРАКТИЧЕСКОГО ПРИМЕНЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТАНДАРТА УЧИТЕЛЯ ШКОЛЫ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ПОДХОДА P5BL

В данной статье проанализированы вопросы эффективной организации профессиональных потребностей, трудностей, саморазвития и процесса профессионального роста учителя. Также в ней разработана и научно-методически обоснована когнитивно-функциональная модель практического применения профессионального стандарта учителя школы общего среднего образования на основе подхода P5BL. Модель опирается на гармонию компонентов мотивации и целеполагания, креативности и инновационного мышления, концептуального, процессуально-содержательного, когнитивного, а также рефлексивно-коммуникативного компонентов. Исследование раскрывает возможности внедрения профессионального стандарта учителя в практическую деятельность, развития компетенций педагога XXI века и ориентации процесса непрерывного профессионального развития на результативность.

Ключевые слова и понятия: профессиональный стандарт, когнитивно-функциональная модель, профессиональное развитие, саморазвитие, рефлексия, инновационное мышление.

FAYZULLAYEVA G.SH. COGNITIVE-FUNCTIONAL MODEL OF THE PRACTICAL APPLICATION OF THE PROFESSIONAL STANDARD OF A GENERAL SECONDARY SCHOOL TEACHER BASED ON THE P5BL APPROACH

This article analyzes the issues of effectively organizing the teacher's professional needs, difficulties, self-development and professional growth processes. It also develops and scientifically-methodologically substantiates a cognitive-functional model for the practical application of the professional standard of a general secondary school teacher based on the P5BL approach. The model is based on the harmony of the components of motivation and goal setting, creativity and innovative thinking, conceptual, procedural-content, cognitive, and reflexive-communicative components. The study reveals the possibilities of applying the teacher professional standard to practical activity, developing the teacher's twenty-first-century competencies, and orienting the process of continuous professional development toward effectiveness.

Key words and concepts: professional standard, cognitive-functional model, professional development, self-development, reflection, innovative thinking.

Kirish. Zamonaviy ta'lim taraqqiyoti o'quvchidan nafaqat raqamli jarayonlarni mohirlik bilan boshqarishni, balki u bilan ishlash, uni yanada takomillashtirish darajasidagi yangi g'oyalar egasi bo'lib yetishishni talab etmoqda, chunki rivojlangan dunyoda ayrim bilimlar emas, nazariyalarni amaliyotga tatbiq qiladigan yangi hayotiy bilimlar va ularning sifatigina o'z o'rnini topa oladi. O'quvchilarning bunday talab darajasida shakllanishida maktab ta'limi muhim poydevor vazifasini o'taydi. Bunday vaziyatda o'qituvchi ijodkor va mustaqil shaxsni tarbiyalash metodikasini chuqur o'zlashtirgan hamda o'z konsepsiyasini loyihalashda bilimlarni uzatish emas, uni yaratish modelidan ilhom olgan, faoliyatida doim amalga oshirgan bo'lishi zarur. Bilimlarni uzatish jarayoni kishida faol o'qishga asoslangandek tasavvur uyg'otadi, sababi u fundamental bilimlarni, ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi, shuningdek, asosiy tushuncha va g'oyalarni egallash ustun bo'ladi, lekin axborotlashgan, internet resurslari kontekstlar (fanga doir nazariy manbalar) bilan to'lgan bir davrda faqat mazmun uzatish – bu o'qitish va o'rganishga bir tomonlama yondashish bo'lib, ta'lim samaradorligini pasaytiradi.

Tadqiqotning maqsadi olib borilgan tadqiqot va izlanishlar natijasi sifatida umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisining kasb standartini P5BL yondashuvi asosida amaliyotda qo'llashning kognitiv-funksional modelini ishlab chiqish.

Ta'limda qadamlar jadallik bilan tashlanayotgan, nazariyalar shiddat bilan yangilanayotgan bir paytda o'qituvchilarni


uzluksiz kasbiy rivojlantirish uchun mavjud innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar, metodlardan foydalanish bilan birgalikda, ularni takomillashtirish, alternativlarini ishlab chiqish lozim. Hozirda uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun ko'plab usullardan foydalanish mumkin, biroq global o'zgarishlar sharoitida ayrim yondashuvlar kasbiy rivojlantirish muammosini hal qilishda boshqalariga nisbatan samaraliroq bo'la oladi. Bunda muammoni hal qilish rejalari o'quv jarayoniga asoslangan bo'lib, u kontent yoki o'quv dasturlari sohalarida qo'llaniladigan metakognitiv strategiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv shaxsning shug'ullanayotgan har qanday faoliyatida o'zi uchun mustaqil ta'limni tashkil eta olishi, o'quv jarayonida esa o'z-o'zini nazorat qila olishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot natijasi. Zamonaviy ta'limning hozirgi psixologik-pedagogik shart-sharoitlari, omillariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u o'qib-o'rganish atrofida jiddiy va murakkab o'zgarishlarni o'zida aks ettiruvchi to'rtta asosiy tuzilmani talab qiladi: bilish uchun o'qish/o'rganish; amalda bajarish (qo'llash) uchun o'qish/o'rganish; birgalikda yashash uchun o'qish/o'rganish; hamda mavjud bo'lish (inson bo'lish) uchun o'qish/o'rganish¹. An'anaviy o'qitish yuqoridagi talablarning avvalgi ikkitasi bilan doimiy ravishda shug'ullangan, ayniqsa,

¹ Delors, J. The treasure within: Learning to know, learning to do, learning to live together and learning to be. What is the value of that treasure 15 years after its publication? // Int. Rev. Educ.: 2013, 59, 319–330, doi:10.1007/s11159-013-9350-8.

1-rasm. O'qituvchining kasbiy qiyinchiliklari va ilmiy-metodik yordamga muhtoj sohalari.

O'QITUVCHINING KASBIY QIYINCHILIKLARI VA ILMIY-METODIK YORDAMGA MUHTOJ SOHALARI



qanday bajarishni o'rgatish ustunroq ham bo'lgan, lekin zamon bilan birga yashash, o'rganganlari kabi bo'lish biroz chetga surilgan, buning natijasi o'laroq keyingi ko'pgina chaqiriqlarda maktab ta'limi haqiqiy hayotni o'rgatmadi yoki orqada qolgan kabi g'oyalar yangrab qoldi. Shu tufayli mavjud ta'limning sof instrumental qarashlaridan o'zib ketish va uning funksiyasini to'liqligi bilan shaxsning o'zini-o'zi anglash jarayonini ko'rib chiqishga yo'naltirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bunda bir tomondan o'z-o'zini anglash uchun individuallikni aniqlash muhim bo'lsa, ikkinchi tomondan shaxsiy-kasbiy o'sish maqsadida qulay shart-sharoitlarni yaratish uchun zarur bo'lgan jarayon va munosabatlarni rivojlantirish hamda mustahkamlash, ijtimoiylashuv, kashfiyotchilik, uyg'otish, ijodiy imkoniyatlarni oshirish, tashabbus ko'rsatish shart qilib qo'yilgan kengroq maqsadlarni ifodalaydi.

Maktab o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida o'qituvchi kasb standartini amaliyotda qo'llashning kognitiv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, maktab pedagog xodimlarining kasbiy qiyinchiliklari va ilmiy metodik yordamga muhtoj sohalari o'rganilganda, faoliyat hamda fanni o'qitish davomida paydo bo'ladigan ehtiyojlarning vaqtida o'rganilmasligi, aniqlanmasligi

alaloqibat uning qiyinchilik sohasiga aylanishiga guvoh bo'lindi (1-rasm).

Uzluksiz kasbiy rivojlanishda pedagog o'zidagi idrok qilayotgan ehtiyojlarini o'rganish jarayonida sifat o'zgarishlariga erishadi, bu holat esa uni yangi faoliyat darajasiga olib chiqadi. Shuning uchun ham "ehtiyot", "qiyinchilik" va "rivojlanish" tushunchalari bir vaqtning o'zida bir obyektga tegishlidir. Shu bilan birga, rivojlanish – bu individual bosqichlardan o'tishning o'ziga xos istiqbolli chizig'i bo'lib, bu shaxs uchun yangi sifatga aylanishning alohida harakatini anglatadi. Pedagogning kasbiy rivojlanish muammolarini samarali hal qilish zarurati yuqorida aytib o'tilgan qiyinchiliklarning turli jihatlarini o'rganishda o'z aksini topadi. Ilmiy tadqiqotlarda ushbu muammo yuzasidan turli izlanishlar olib borilgan. Xususan, kasbiy faoliyatni amalga oshirish, kasbiy mahorat darajalarini o'rganish, mehnatga tayyorgarlikni shakllantirish, mehnat subyektining kasbiy shakllanishi, faoliyat subyektining kasbiy madaniyatini rivojlantirishning umumiy tamoyillari va boshqalar shular jumlasidandir (kasbiy rivojlanish borasidagi tadqiqot tahlillari muallifning avvalgi tadqiqotlarida batafsil o'rganilgan)¹. Psixologiyada "shaxsni shakllantirish" tushunchasining eng

¹ Ibragimov, A. A., & Fayzullaeva, G. S. (2026). P5BL yondashuvi asosida uzluksiz kasbiy rivojlanishni tashkil etish: nazariy asoslar, munosabat va tahlil // Современное образование (Узбекистан), (1), 3-15. doi: 10.34920/so/vol_2026_issue_1_1.

keng tarqalgan ta'rifi uning ijtimoiy harakatlar va o'z-o'zini takomillashtirish hamda taqdim etishga qaratilgan o'z faoliyati ta'siri ostida maqsadli progressiv shaxs o'zgarishining uzluksiz jarayoni sifatida tushunishdir. Shaxsning rivojlanishi, albatta, takomillashuv ehtiyojini, inson ehtiyojlarini qondirish imkoniyati va haqiqatini ta'minlaydi. Pedagogik faoliyat subyektining o'z pozitsiyasi, kasbiy rejalari, xulq-atvor strategiyasi, maqsadlari va harakat dasturlari, faoliyat natijalariga munosabati hamda boshqa o'ziga xos xususiyatlari bilan shakllanadi.

O'qituvchi faoliyati va kasbiy rivojlanishida kasb standartining mohiyati, uni amaliyotda qo'llash texnologiyasi, uni amalga oshirish bosqichlarini, natijaviylik tizimini yaqqol ko'rsatib turuvchi tuzilma – model yoki modellashtirishdir. Pedagogik modellashtirish qanchalik murakkab bo'lmasin, unda ilgari surilgan g'oyaning mavjudligi, maqsadning konkretligi, ifodalanayotgan jarayon bosqichlarining ketma-ketligi, izchilligi, uzviyligi, harakatlarning algoritmlashtirilganligi, o'z-o'zini boshqarish, shaxsiy samaradorlikka ishonch, bashorat qilingan mahsulot modelni amalga oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari o'qituvchi kasb standartini P5BL vositasida amaliyotda qo'llashning kognitiv-funksional modelini yaratish hamda uning komponentlari, jarayon bosqichlarini tavsiflash uchun asosli dalillarga ega bo'lish imkonini berdi (2-rasm).

Model biri ikkinchisiga integrativlikda namoyon bo'luvchi motivatsiya va maqsadni belgilash, ijodkorlik va innovatsion fikrlash, konseptual, protsessual-mazmunga doir, kognitiv, g'oya, muammo, rejalashtirish, prototip, mahsulot, targ'ibot, qayta ishlash (qayta aloqa), taqdimot, qiymat (natija) kabi jarayon komponentlari hamda refleksiv-kommunikativ komponentni o'z ichiga oladi. Quyida komponentlarning izohiga to'xtalish barobarida ushbu model umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi kasb standartining "O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish" 6-soha¹ standart ko'rsatkichlari/mehnat funksiyalarining

amaliyotda P5BL yondashuvi vositasida tashviqot qilish maqsadida ishlab chiqilganligiga urg'u berish o'rinli bo'ladi.

Tahlil va muhokama. Modeldagi motivatsiya va maqsadni belgilash komponenti o'qituvchi kasb standartini amaliyotda qo'llashning kognitiv mexanizmlarini takomillashtirishda dastlabki tuzilmadir. Chunki kasb bilan bog'liq maqsadlar aniqligi, ehtiyojga intilish kishining motivatsiyasi va shaxsiy o'sish darajasi bilan birga aks etadi. Agar o'qituvchida kasbiga nisbatan ichki motivatsiya mavjud bo'lsa, yangi bilimlarni egallagani sari tashqi motivatsiya kuchayib boradi va ular o'z-o'zidan uning ehtiyojini qondirishga yo'naladi.


Motivatsiya va maqsadni belgilash komponenti tuzilmasi, avvalo, o'qituvchiga qo'yilgan davlat talablarini bajarish maqsadidan boshlab, kasb standarti, xususan, uzluksiz shaxsiy-kasbiy rivojlanish mazmunini ham o'zida ifodalaydi (3-rasm. O'rganilgan adabiyotlar hamda mualliflik g'oyalari asosida shakllantirilgan).

Ushbu tuzilmadagi birinchi bosqich aniqlik. Aniqlik – o'qituvchining kundalik maqsadlaridan tortib, kasbiy muhim ketma-ketlikdagi maqsadlari ro'yxatini ifodalagan ajoyib g'oya, kashf qilingan aniq tushuncha, maktab o'qituvchisining kasbiy rivojlanishi, o'sishini ko'rsatuvchi konkretlik (masalan, toifa, notiqlik, sinfni boshqarish, qo'shimcha daromad va b.); muddat – har bir maqsadning cheklangan vaqt ichida ekanligi (ma'lum muddatda amalga oshirishni belgilash); xususiylik – ya'ni maqsad va motivni belgilashda induktivlikdan deduktivlikka o'tish (misol, "rivojlanishim uchun o'z ustimda ishlayman, shaxsiy rivojlanaman kabi umumiy mavhum maqsadlardan voz kechishni anglatadi"), sabab va motiv – aniqlangan pedagogik maqsadga erishganlikni his qilish, ushbu maqsadga eltuvchi sabab va motivlarni ko'proq belgilash, rag'batlantirish; vazifa – ong uchun maqsadga yo'naltiruvchi vazifalarni uzviy bajarish muhimligi; reja va tadbir – maqsadga kirishish; uzluksizlik – maqsadga yaqinlashtiruvchi davomiy sa'y-harakat, kunlik qadamlar; kuzatish – maqsadning va motivning ijobiy oqibatini bilish, kuzatish.

Ijodkorlik va innovatsion fikrlash komponenti. Ijodkorlik "yangi narsa yaratish", "biror narsani yangi tarzda ifodalash", "yangi aloqalarni topish" yoki "kutilmagan narsalarni kashf etish, hodis-

¹ Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi kasb standarti. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2021-yil 8-fevraldagi 43-IC-son buyrug'i (R.003.043.0964/B-21 raqami bilan ro'yxatga olingan).

2-rasm. O'qituvchi kasb standartini P5BL vositasida amaliyotda qo'llashning kognitiv-funksional modeli.



3-rasm. Motivatsiya hamda maqsadni belgilash komponenti tuzilmasi.

Motivatsiya va maqsadni belgilash



alarni uyg'otish"¹, "aql, bilim, fikrlash, shaxsiyat va motivatsiyaning o'zaro ta'siri natijasidagi ish motivatsiyasi, domen ko'nikmalari va tegishli ijodiy qobiliyatlari" kabi g'oyalarni o'z ichiga olgan davomiy tadqiqotlarda ifodalangan bo'lsa, innovatsion fikrlashni rivojlantirish uchun muhit va qulay sharoitlar muhim ahamiyatga ega. Demak, ijodkorlik hamda innovatsion fikrlash tushunchalari xilma-xil bo'lsa-da, o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishida ijodkorlik yangilik, asl ijod, xoslik, o'zini namoyon qilishga intilsa, innovatsiyada esa amaliylik, amalga oshirish, samaradorlik, zaruriy sharoitda qaror qabul qilish bilan aniq qiymatni belgilovchi natijani ifodalaydi². Shuning uchun natijani yaratishda ijodkorlik va innovatsion fikrlash barcha komponentlarni harakatlantiruvchi muhim qadam sanaladi. Izlanishlarimizga ko'ra, ijodkorlik o'qituvchining intellektual xususiyatini, innovatsion fikrlash esa ixtiro qilish imkonini beradigan kognitiv daraja sifatida aniqlandi hamda ijodkorlik innovatsion fikrlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi, degan xulosalarga kelindi.

Pedagog xodimlar uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini modellashtirishda sohaga oid olib borilgan ko'plab tadqiqotlardagi yakuniy fikrlar hamda ilmiy izlanishlar natijalari asosida kognitiv-funksional modelning *konseptual komponenti* tarkibini quyidagi nazariy yondashuvlar hamda

ilmiy tamoyillardan iborat qilib belgilash mumkin (4-, 5-rasmlar).

Kognitiv yondashuv o'qituvchilarda bilish jarayonlarini mukammallashtirish asosida faollashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlanishga doir harakatlarini tashkillashtirish yo'llari, shaxsiy-kasbiy barkamollikka erishishida ahamiyatga molik qadriyatli munosabatlarga oid bilimlarini chuqurlashtirishni ifodalaydi. Bu yondashuv o'qituvchi kasbiy rivojlanishining borliqni idroklash, bilish faolligini oshirish, tafakkur, bilimlarni egallash, qayta ishlash, tizimlashtirish, saqlash, qayta yetkazish, izohlash, amaliyotda qo'llash, yangilarini yaratishga yo'nalganligini anglatadi. Shuningdek, o'qituvchining butun faoliyati davomida uning bilish jarayonlarini faollashtirish, kognitiv imkoniyatlarini kengaytirish, refleksiya-sini kuchaytirish, murakkab pedagogik vaziyatlarda oqilona yechim topishi uchun doimiy ravishda ilmiy-metodik va tashkiliy-boshqaruv jihatdan qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish zaruriyatini ham belgilaydi.


P5BL yondashuvi o'qituvchining kompetensiya standartlarida belgilangan mehnat funksiyalarini amalga oshirishda aniq muammoni o'rganish tahlil qilish barobarida uning yechimiga olib boruvchi harakatlar tizimini loyihalash, jarayonda shaxsdagi mavjud o'zgarishlar, o'rganishlarga muvofiq faoliyat mazmuniga yangiliklar kiritish natijani aniq bashoratlash orqali ijodiy-innovatsion fikrlash natijasi sifatida yuzaga chiqadi. Ushbu yondashuv kognitiv strategiyalarni amalga oshiruvchi muammoga, loyihaga, shaxsga, jarayonga va natijaga

ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ 2026, 5 (162)

¹ Maley, A. (2003). Creative approaches to writing materials. // in Developing materials for language teaching, ed. B.Tomlinson (Bloomsbury: Bloomsbury publishing), 183-198.

² Sternberg, Robert J.(2006) 'The Nature of Creativity', Creativity Research Journal, 18: 1, 87-98.

4-rasm. Konseptual komponent tarkibidagi nazariy yondashuvlar tuzilmasi.



asoslangan o'qitish nazariyasi va amaliyotidan tashkil topgan.

Andragogik yondashuv katta yoshli ta'lim oluvchilarning individual belgilariga asoslanadi. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- katta yoshlilar ta'lim jarayonida nimani o'rganishlari haqida aniq tasavvur va motivga egaliklari sababli faol pozitsiyani egallaydilar;
- ularda o'z-o'zini faollashtirish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini rivojlantirishga doir aniq ichki ko'rsatma mavjud;
- o'z rivojlanishining manbasi yoki to'sig'i bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy va madaniy tajribaga ega;
- faoliyatidagi vazifalar hamda muammolarini yechishga qaratilgan bilimlar va kompetensiyalarni egallashga ehtiyoj sezadi;
- ta'lim olishda o'z resurslarini tejashdan manfaatdor;
- malaka oshirishni tashkillashtirishning barcha bosqichlarida o'quv jarayonini boshqarishning teng huquqli a'zosi^{1, 2, 3, 4}.

¹ Биктутанов Ю.И. Методологические аспекты развития профессиональной мобильности учителя в системе дополнительного образования вуза // Педагогическое образование в России. – 2013. – № 6. – С. 7-11.

² Змеев С.И. Андрогогика: основы теории и технологии обучения взрослых. – М.: "PerSe", 2009. – 438 с.

³ Кузнецова И.Ю. Андрогогические условия развития субъектной позиции педагога в процессе повышения квалификации: автореф. дисс... канд. пед. наук. – Кемерово, 2011. – 24 с.

⁴ Кукуев А.И. Андрогогический подход в образовании взрослых. – Ростов на Дону: "Булат", 2008. – 176 с.

Mazkur holatda uzluksiz malaka oshirish jarayonida o'qituvchi va tinglovchining o'zaro ta'siri to'liq ta'minlanadi hamda andragogning maslahatchi, supervizor, moderator, fasilitator kabi funksiyalari dolzarblashadi⁵.

Faoliyatli yondashuv o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi va umumiy o'rta ta'limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan o'qituvchining kasbiy faoliyati hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishi jarayonlarini integratsiyalovchi, uzviyligini ta'minlovchi yangi pedagogik voqelik hisoblanadi.

Akmeologik yondashuvning mazmun-mohiyati zamonaviy pedagogik ta'limga, kasbga hamda kasbiy rivojlanishga motivatsiyani kuchaytirish, ijodiy potensialni rag'batlantirish, faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash va unumli foydalanishga intilish bilan belgilanadi. Shuningdek, yuqori kasbiy natijalar, tajribalar, mahoratga erishish, standart talablariga javob berish, jumladan, malaka oshirish, qayta tayyorlash masala va muammolari tadqiq qilinadi.

Kompetensiyaviy yondashuv o'qituvchi kasb standartini P5BL vositasida amaliyotda qo'llashning kognitiv-funksional modelda ushbu yondashuv o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish sohasini konkret ifodalashga yordam beradi. Ushbu yondashuv orqali tadqiqotda o'qituvchida

⁵ Возгова З.В. Методологический регулятив развития системы непрерывного повышения квалификации научно-педагогических работников. – М.: "АПК и ПРО", 2010. – 239 с.

rivojlanishi lozim bo'lgan XXI asr kompetensiyalari yoki transversal kompetensiyalar nazarda tutiladi.

Bugun ilmiy hamjamiyatda va kasbiy rivojlanishda raqamli bo'lmagan kasblarda raqamli ko'nikmalarni shakllantirish, raqamli kasblarda yumshoq ko'nikmalarni shakllantirish, vizual aloqa, vizualizatsiyadan unumli foydalanish, ijtimoiy media qobiliyatlarini rivojlantirish kabi tendensiyalarning ommalashuvi XXI asr kompetensiyalarining kengroq talqin etilishi, takomillashtirilishi va qator ilmiy jabhalarda, xalqaro hamkorlikda¹ tadqiq qilinishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. XXI asr kompetensiyalari an'anaviy akademik qobiliyatlardan farqli ravishda, chuqurroq o'rganish bilan bog'liq analitik fikrlash, murakkab muammolarni hal qilish va boshqa shu kabi kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan jamoaviy ishni nazarda tutadi. O'rganilgan tadqiqotlarda ushbu kompetensiyalarni turlicha guruhlash va talqinlash uchrasa-da, ularda mazmun yaxlitligi ko'zga tashlanadi:

- ta'lim va innovatsiya kompetensiyalari (tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, aloqa va hamkorlik, ijodkorlik va innovatsiya);
- raqamli savodxonlik (axborot, media, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) savodxonligi);
- karyera va hayotiy kompetensiyalar (moslashuvchanlik, kirishuvchanlik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini boshqarish, ijtimoiy va madaniyatlararo o'zaro ta'sir, mahsuldorlik hamda mas'uliyatlilik, javobgarlik).

Falsafiy-antropologik yondashuv tadqiqotchilik va tarbiyaviy funksiyasiga ko'ra, shaxsning ma'naviy dunyosiga yo'naltirilganligi bilan o'ziga xosdir. Xususan, unda ta'lim-tarbiya jarayonining barcha subyektlariga nafaqat dunyoqarash ko'rinishida, balki mavjudlik usuli tarzida qarashni talab etadi.

Ushbu yondashuv hayot falsafasi, turmush tarzi va kasbiy faoliyat, o'zgaruvchi va yangilanuvchi borliq, ma'naviyat va madaniyat, yosh va psixologik xususiyat, individ, inson, individuallik, shaxsiy tajriba hamda kreativlik, hamkorlik va dialogik harakat, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish, o'zaro bir-birini tushunish, natija va ishonch kabi g'oyalar fonida o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga olib keladi.

Kommunikativ yondashuv^{2, 3} MTPXUKRda o'qitishni tashkillashtirishning kommunikativ yo'nalganligini ifodalaydi. Bunday yondashuv o'qituvchining jamoada o'zini tutishi, o'zaro ta'sirga mo'ljal olishi, axborotlarni va tajribalarni tezkor almashishi hamda kognitiv faollik bilan xarakterlanadi. Mazkur jarayonlar o'qituvchining kommunikativ kompetentligini aniq sharoitlarda rivojlantirish, guruhlarda ishlash, o'zaro ishonch, o'zaro yordam, o'zaro mas'uliyatlilikni oshirish, tajribalarning faoliyati uchun muhim bo'lganlarini o'rganish va shaxsiy tajribasini ommalashtirish, yangiliklarga ochiqqligiga yo'naltiriladi.

Ilmiy tamoyillar:

Diversifikatsiyalash tamoyili. Mazkur tamoyil tizimda faoliyat turlarini kengaytirish, yangi xillarini topish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish turlari va shakllarini turli-tumanlashtirish, tinglovchilarga kasbiy o'sish, o'zlarini namoyon qilish hamda mobilligini ta'minlashga qulay sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Individuallashtirish tamoyili. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning alohida xususiyatlari, imkoniyatlari va kompetentligini inobatga olish orqali individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini qurishni nazarda tutadi. Malaka oshirish dasturlarini tuzishda pedagoglarning malaka toifasi, ish staji, yoshi, kasbiy mahorati darajasi, axborot texnologiyalarini qo'llay olishi, modullarni o'zlashtirish sur'ati, vaqti hamda manzil sharoitlari hisobga olinadi.

Modullilik tamoyili malaka oshirish ta'limida o'quv materialini aniq maqsadga erishishga mo'ljallangan alohida funksional qismlar, ya'ni modullarga bo'lish va ularni o'zlashtirish ketma-ketligini belgilashni nazarda tutadi. Bu o'rinda o'quv materiali shunday tuzilishi kerakki, unda tinglovchilar o'z oldiga qo'ygan didaktik maqsadining yechimi ta'minlanishi hamda malaka oshirish turli shakllarining uyg'unlashtirilishiga e'tibor qaratish talab etiladi.


Variativlik tamoyili tizimning moslashuvchanligi hamda variativligini ta'minlash, o'qituvchilarga taklif etiladigan modullar, malaka

² Шапов А.Н. Лингводидактические основы когнитивного подхода в организации обучения лексике на уроках немецкого языка в средней школе. – Н.Новгород: "НГЛУ им. Н.А.Добролюбова", 2004. – 190 с.

³ Шепилова А.В. Коммуникативно-когнитивный подход к обучению французскому языку как второму иностранному. – М.: "Школьная книга", 2003. – 488 с.

¹ P21 Skills Archived 2010-03-06 at the Wayback Machine. Retrieved 2016-03-09.

5-rasm. Konseptual komponenttarkibidagi ilmiy tamoyillar tuzilmasi.



oshirish shakl va usullarini tanlashga sharoit yaratish natijasida ta'lim mazmunini o'zlashtirishni, maqbullashtirish imkoniyatini ifodalaydi.

O'zaro ta'sir tamoyili tizim ishtirokchilarining jarayonni maqbul tashkillashtirish, takomillashtirishga oid vazifalarni hamkorlikda hal etish, o'quv mazmunini ishlab chiqish, tatbiq qilish, samarali boshqaruvni yuritishda barcha ishtirokchilarning manfaatlarini ko'zlash, teng huquqliligini ta'minlash, ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirilishini belgilaydi.

Refleksivlik tamoyili o'qituvchilarning o'z kasbiy missiyasini anglashi, faoliyatini tahlildan o'tkazish, muammoli vaziyatlarni aniqlash, shaxsiy tajribasi ma'nosini tushunish, istiqboldagi harakatlarini loyihalash va o'z-o'zini rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqishini nazarda tutadi.

Ilmiy-metodik kuzatuv tamoyili o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ongli munosabatini shakllantirish, ularning individualligi, mustaqilligi, pedagogik vaziyatlarda eng maqbul yechimni topishi, ichki salohiyatini ro'yobga chiqarishiga sharoit yaratish, har taraflama konsultativ yordam ko'rsatish hamda o'z-o'zini faollashtirish, o'z-o'zini namoyon qilishga intilishini qo'llab-quvvatlash va kasbiy mahoratiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashni ifodalaydi.

Elektivlik tamoyili tinglovchilarga kasb standartini amaliyotda qo'llash va malaka oshirishning maqsadi, mazmuni, shakli, metodlari, manbalari, vositalari, muddati, vaqti, joyi va natijalarini baholashni tanlashda erkinlikni nazarda tutuvchi individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish imkoniyatini ta'minlash bilan izohlanadi. Shuningdek, tinglovchilarning o'ziga xos

xususiyatlarini hisobga oladigan, birxillashtirishdan qochish sharoitini yaratadigan va barchaga o'z qobiliyatini mumkin qadar namoyon qilishga imkon beradigan ko'p vektorli yondashuv nazarda tutiladi.

Integrativlik tamoyili UKR jarayonining barcha elementlari va subyektlarining o'zaro aloqadorlikda bo'lishini nazarda tutadi. Mazkur tamoyil uzluksiz kasbiy rivojlantirish mazmuni, shakli, metod, vositalarini belgilashda butunlik va tizimlilikni ifodalaydi. Integrativlik tamoyili orqali pedagoglarning kasbiy shakllanishida oliy va malaka oshirish ta'limi orasidagi uzviylik hamda uning formal, noformal, informal turlarini uyg'unlashtirish ta'minlanadi.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlar, tamoyillar asosida ishlab chiqilgan malaka oshirish ta'limi mazmuni o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi hamda ularning kompetentlilik darajasi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Modelning *protssessual-mazmunga doir komponenti* o'qituvchi kasb standartini P5BL vositasida amaliyotda qo'llashga kognitiv yondashuvning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari hamda o'qitish bosqichlari, mazmuni, shakl va metodlarini, shuningdek, kognitiv-funksional modelda ifodalangan jarayon va uning xatti-harakat yo'nalishida yuzaga keluvchi barcha bosqichlarni qamrab oladi.

P5BL vositasida kechuvchi o'z-o'zini rivojlantirish va malaka oshirish jarayoni an'anaviy o'quv muhitidan farqli ravishda nisbatan mustaqil topilmalar va qarorlar nisbatida kechadi. Ushbu komponentda muammoga asoslangan o'qitish navbatdagi qadamlarga

6-rasm. Kognitiv komponent tuzilmasi.



o'tish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, avvalo, o'qituvchi tomonidan kasbiy o'sish yoki kasbiy rivojlanish kurslari natijasida kashf etilgan g'oya, aniq maqsadni amalga oshirish borasida paydo bo'luvchi ehtiyoj, qiyinchilik muammo atrofida loyihaga asoslanib o'rganishni tashkil etuvchi savollar, kengroq izoh talab qilinganda so'rovnoma o'tkazish, muammolarni hal qilish va tahlil qilishni osonlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik hamkorlik muhiti yaratiladi.

Sinov hamda o'rganishni qo'llab-quvvatlovchi kashf etish, muammoni aniqlash, rejalashtirish, kuzatish, muammoga o'sish, prototipni sinovdan o'tkazish, rag'batlantirish, dastlabki natijaviy sinov, targ'ibot qilish, ommalashtirish, qayta ishlash – shu o'rinda dastlabki holatga o'tish, ya'ni qayta aloqani vujudga keltirish, olib borilgan faoliyat yuzasidan kompleks chuqur tahlil qilish, takomillashtirish, baholash, refleksivlik, birgalikda qayg'urish, o'z ta'rifiga ega bo'lish, konseptualizatsiya va boshlab berilgan ilk g'oya bosqichlarini uzviy bog'lovchi jarayonga asoslangan o'qitishdan tashkil topadi.

Kognitiv komponent loyihalangan modelning negizini ifodalaydi hamda o'qituvchi kasb standartini amaliyotda qo'llashning kognitiv mexanizmlarini takomillashtirishda poydevor vazifasini o'taydi. Mazkur komponent o'qituvchilarning ongli faoliyati, missiyasini anglashi, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish, shaxsiy-kasbiy fazilatlarini takomillashtirish, bilish jarayonlarini mukammallashtirish, kognitiv imkoniyatlarini kengaytirish, kasbiy o'sish

uchun g'oyalar kashf etish, muammoni anglash, yechim topish, malaka oshirish va har bir hayotiy vaziyatdan ijobiy kutilmalarining muqarrarliligi, murakkab pedagogik holatlarda oqilona qaror qabul qilish, muammoga, loyihaga, shaxsga, jarayonga va natijaga asoslangan o'qitish ko'nikmasi ko'rinishida muayyan o'quv vaziyatlari yechimlarini bashoratlash asosida uzluksiz kasbiy rivojlanishida tayanch nuqtani bildiradi (6-rasm). Mazkur komponent tarkibiy qismlarining amaliyot vositasi sifatidagi tavsifi keyingi paragrafda batafsil keltiriladi.

Modelning *refleksiv-kommunikativ komponenti* o'z-o'zini va o'zaro nazorat qilish ko'nikmasini, kompetentligini (yoki kompetentsizligini) adekvat baholash, faoliyatidan qanoatlanish, o'z-o'zini faollashtirish darajasini tahlillash, kasbiy qiyinchiliklari, ehtiyojlarini anglashi, tanqidiy munosabati, korreksiyalash qobiliyati, tajribalarni almashishda hamkorligi hamda ijodiy loyihalarni yaratish layoqatini rivojlantirishni o'z tarkibiga oladi. Bu komponent tinglovchilarning ijodkorligini yuksaltirish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini faollashtirish, o'quv faoliyatida sheriklari bilan muloqotga kirishish, o'zaro tajriba almashish usullarini o'zlashtirish, alohida va guruhda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda tegishli subyektlar bilan o'zaro ta'sirni amalga oshirishga yordamlashadi.

Refleksiv-kommunikativ komponent pedagogning mustaqil hamda guruhda ishlash ko'nikmasiga egaligi, o'z tajribalarini o'rtoqlashishi, o'quv vazifalarini bajara oli-

shi, hamkasblariga hurmat bilan munosabati, ularni eshita bilishi, o'z fikrini, qarashlarini asoslashi va to'g'ri ifodalay olishini belgilaydi. Shuningdek, ehtiyojlari, imkoniyatlari, salohiyati, xususiyatlariga ko'ra, malaka oshirish shakllari hamda vositalarini to'g'ri tanlash orqali individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuza olishi, o'quv mazmunini shakllantirishda shaxsiy takliflari bilan ishtiroki hamda o'z-o'zini boshqarish kompetensiyasida aksini topadi.

Alohida ta'kidlash mumkinki, kasbiy rivojlanish samaradorligini aniqlashda nazorat, o'z-o'zini nazorat, o'zaro nazorat turlaridan kompleks foydalanish natijalarning ishonchliligini va shaxsiy mas'uliyatlilikni ta'minlaydi.

O'z-o'zini nazorat qilish tushunchasiga pedagogika va psixologiya sohasida tadqiqot olib boradigan olimlar tomonidan tez-tez murojaat etiladi. O'z-o'zini nazorat qilish shunday shaklki, unda obyekt sifatida subyekt faoliyatining o'zi xizmat qiladi. O'z-o'zini nazorat qilish shaxsiy o'quv faoliyatini ongli baholash va olingan natijani talab qilinadiganidek muvofiqlik darajasiga erishish maqsadida keyingi (zaruratga ko'ra) moslashtirishni nazarda tutadi¹. Adabiyotlarda o'z-o'zini nazorat qilish o'z shaxsiyati, fazilatlarini, xatti-harakatlarini tahlillash hamda u haqida fikr yuritish, ijobiy xislatlarini orttirib borish va, aksincha, salbiy tomonlarini bartaraf etishga qaratilgan faoliyat sifatida baholanadi^{2, 3}.

O'zaro nazorat esa kompleks pedagogik usullardan biri sifatida o'quv vazifasi yechimi etalonini ko'rsatmagan holda, tinglovchilarga bir-birlarining faoliyatini baholash taklif etiladi va bunda o'zaro xayrixohlikka e'tibor qaratiladi. Demak, o'zaro nazorat faoliyati tomonlarning ishonch muhitidagi muloqot shaklidir. O'zaro nazorat shakllarini qo'llash tinglovchilarning faolligi va mustaqilligiga erishish hamda ish sur'atini individuallashtirishga imkon beradi. Y.N.Bespalayaga muvofiq, ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyati samaradorligi sifatini belgilashda o'zaro nazorat qilishning o'rniga ortiqcha baho berishga hojat

yo'q, chunki u shaxsning halollik, adolatlilik, jamoadoshlik xislatlarini ishlab chiqishga yordam beradi hamda ta'lim oluvchilar faoliyatini sezilarli faollashtiradi va bilimlarga qiziqishini orttiradi⁴.

Refleksiv ko'nikmalarni orttirish tinglovchilarning kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega, ya'ni refleksiya ularning o'z faoliyati maqsadi, mazmuni, vositalari, shakllari, usullari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishiga olib keladi hamda faoliyatini tanqidiy baholash, korreksiyalash imkonini beradi va uni faol subyektga aylantiradi.

Modelning yuqorida tahlili keltirilgan komponentlari quyidagi bosqich va uni ifodalovchi harakatlar mazmunida ko'zlangan maqsadga erishish jarayonini aks ettiradi: g'oya – g'oya (o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga doir), kashf etish, yaratish; muammo – mavjud muammoni aniqlash (maqsadga eltuvchi, ehtiyojga asoslangan); rejalashtirish – muvaffaqiyatga erishish yo'lini rejalashtirish, loyihalash, kuzatish, muammoga o'sish (doimiy harakat); prototip (boshlang'ich nuqta) – sinovdan o'tkazish; mahsulot, targ'ibot – boshlang'ich natijani sinovdan o'tkazish; qayta ishlash, taqdimot – qayta aloqani ta'minlash (bosib o'tilgan qadamlarni kompleks tahlil qilish, boshlang'ich nuqta, ya'ni g'oya bilan yuzviyligini aniqlash), targ'ibot qilish, ommalashtirish; qiymat – baholash, refleksiv rostanish (faoliyatidagi refleksiv xususiyatga aylangan xatti-harakatlariga nisbatan mas'uliyatni his qilish, o'z-o'ziga savol berish).

Xulosa.

Demak, o'qituvchi kasb standartini P5BL vositasida amaliyotda qo'llashning loyihalangan kognitiv-funksional modeli jarayonning ijobiy dinamikasini belgilovchi turli vektorlarni uyg'unlashtirish, malaka oshirish turlarini (formal, noformal, informal) maqbul qo'llash, o'qituvchilarning ongli faoliyati, shaxsiy-kasbiy fazilatlarini, XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirish, kognitiv imkoniyatlarini safarbar qilish asosida samaradorlikka erishishga sharoit yaratuvchi o'zaro bog'liq bo'lgan komponentlar (motivatsiya va maqsadni belgilash, ijodkorlik va innovatsion fikrlash, konseptual, protsessual-mazmun va jarayonga doir qadamlar, kognitiv, refleksiv-kommunikativ) tizimini ifodalaydi.

¹ Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: "ИКАР", 2009. – 448 с.

² Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 288 b.

³ Pedagogika / M.Toxtodjayevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 400 b.

⁴ Петров В.В. Теории мотивации: Электронный учебник. – М.: ИД РАВНОВЕСИЕ, 2006.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi kasb standarti. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2021-yil 8-fevraldagi 43-IC-son buyrug'i (R.003.043.0964/B-21 raqami bilan ro'yxatga olingan).
2. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. – T.: "Fan va texnologiya", 2008. – 288 b.
3. Ibragimov A.A., & Fayzullaeva G.S. (2026). P5BL yondashuvi asosida uzluksiz kasbiy rivojlanishni tashkil etish: nazariy asoslar, munosabat va tahlil // Современное образование (Узбекистан), (1), 3-15. doi: 10.34920/so/vol_2026_issue_1_1.
4. Pedagogika M.Toxtodjayevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 400 b.
5. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: "ИКАР", 2009. – 448 с.
6. Биктуганов Ю.И. Методологические аспекты развития профессиональной мобильности учителя в системе дополнительного образования вуза // Педагогическое образование в России. – 2013. – № 6. – С. 7-11.
7. Возгова З.В. Методологический регулятив развития системы непрерывного повышения квалификации научно-педагогических работников. – М.: "АПК и ПРО", 2010. – 239 с.
8. Змеев С.И. Андрогогика: основы теории и технологии обучения взрослых. – М.: "PerSe", 2009. – 438 с.
9. Кузнецова И.Ю. Андрогогические условия развития субъектной позиции педагога в процессе повышения квалификации: автореф. дисс... канд. пед. наук. – Кемерово, 2011. – 24 с.
10. Кукуев А.И. Андрогогический подход в образовании взрослых. – Ростов на Дону: "Булат", 2008. – 176 с.
11. Петров В.В. Теории мотивации: Электронный учебник. – М.: ИД РАВНОВЕСИЕ, 2006.
12. Шамов А.Н. Лингводидактические основы когнитивного подхода в организации обучения лексике на уроках немецкого языка в средней школе. – Н.Новгород: "НГЛУ им. Н.А.Добролюбова", 2004. – 190 с.
13. Шепилова А.В. Коммуникативно-когнитивный подход к обучению французскому языку как второму иностранному. – М.: "Школьная книга", 2003. – 488 с.
14. Delors J. The treasure within: Learning to know, learning to do, learning to live together and learning to be. What is the value of that treasure 15 years after its publication? // Int. Rev. Educ.: 2013, 59, 319–330, doi:10.1007/s11159-013-9350-8.
15. Maley, A. (2003). Creative approaches to writing materials. // in Developing materials for language teaching, ed. B.Tomlinson (Bloomsbury: Bloomsbury publishing), 183-198.
16. P21 Skills Archived 2010-03-06 at the Wayback Machine. Retrieved 2016-03-09.
17. Sternberg Robert J.(2006) 'The Nature of Creativity', Creativity Research Journal, 18: 1, 87-98.